



## 2-bosqich 1-semestr

14-mavzu: Muhammad Rizo Ogahiy  
hayoti va ijodi

Adabiyot

Abdukadirova M.M





## • **Reja:**

- 1.Ogahiy hayoti haqida ma'lumot.
- 2. Ogahiyning tarixiy asarlari
- 3. Ogahiy tarjimalari.
- 4.Ogahiy lirikasi.



# MUHAMMAD RIZO OGAHIY (1809-1874)





TIIAME



**Ogahiy** 1809-yili 17- dekabrdan  
Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida  
Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi.

- Shu yerda boshlang‘ich ma’lumotni  
oladi. Yoshligida otasi vafot etib,  
adabiyotimizning yana bir yorqin  
siymosi bo‘lmish amakisi Munisning  
tarbiyasida bo‘ldi.



# Mirob shoir



TILAME



- Muhammad Rizo maktab, keyinchalik madrasa tafsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o‘rgandi. 1829-yilda Munis vafot etgach, hukmdor Olloqulixon uning o‘rniga Ogahiyni mirob etib tayinlaydi.

Bilasizmi?

Mirob - suv ishlari boshqaruvchisi.



# Tarixnavis olim



TILAME

Saroy tarixchisi vazifasini ham olib borayotgan Ogahiy 1839-yilda Munis boshlab qo‘ygan "**Firdavs ul-iqbol**" (Iqbol bog‘i) asarini davom ettirib, Xiva xonligining 1825- yilgacha bo‘lgan tarixini yozib tugatdi. 1844- yilda xonlik tarixini shu yilgacha bo‘lgan voqealarini o‘z ichiga olgan "**Riyoz ud-davla**" (Saodat bog‘lari) kitobini tamomladi.





TIIAME

- 1846- yilda **"Zubdat ul-tavorix"** ("Tarixlar qaymog‘i");
- 1847-1855- yillarda esa **"Jome’ ul-voqeoti sultoniy"** ("Sultonlik voqealarining yig‘indisi") tarixiy asarlarini yozdi.
- XIX asrning 60-yillarida **"Gulshani davlat"** va **"Shohidi iqbol"** ("Baxt shohidi") tarixiy asarlarini yozdi.



# Mohir tarjimon



TILAME

- «Ravzat us-safo» (Mirxon);
- «Tarixi jahonkushoyi Nodiriy» (Muhammad Maxdiy Astrobodiy);
- «Badoe’ ul-vaqoe’» (3. Vosify);
- «Miftoh ut-tolibin» (Mahmud binni Shayx Ali G‘ijduvoniy);
- «Tabaqoti Akbarshohiy» (Muhammad Muqim Hirotiy);
- «Tazkirai Muqimxoniy» (Muhammad Yusuf Munshiy);
- «Ravzat us-safoyi Nosiriy» (Rizoqulixon Hidoyat);
- «Axloqi Muhsiniy» (Koshifiy);
- «Qobusnama» (Kaykavus);
- «Zubdat ul-hikoyot», «Sharhi daloil ul-hayrat» (Muhammad Voris);
- «Guliston» (Sa’diy);
- «Yusuf va Zulayho» (Jomiy);
- «Shoh va gado» (Hiloliy);
- «Haft paykar» (Nizomiy) va boshqa tarixiy-badiiy asarlarni fors tilidan o‘zbekchaga tarjima qilgan.



# "Ta'viz ul-oshiqin" devoni



TILAME

- "Ta'viz ul-oshiqin" – "**Oshiqlar tumori**" degani. Devon ma'rifatparvar shoh va shoir Feruz – Muhammad Rahimxon II ning taklifi va talabi bilan 1872-yilda tuzilgan.





# DEVON HAJMI



TILAME

- Devon an'anaviy tartibda tuzilgan:
- 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muxammas,  
5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman,  
4 tarje'band, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq,  
1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo,  
4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq  
va ma'shuq savol-javobi, 20 ta'rix, 19 qasida  
— jami **18000** misradan iborat.



TILAME

## «Ash'ori forsiy»

- Devonga «Ash'ori forsiy» nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan.
- Devondagi asarlar mazmun-mundarijasi markazida ishq mavzui turadi.



# IJODDA YANGILIK



TIIAME

- Shoir o‘zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baqo berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan.
- Ogahiy janr imkoniyatlariga ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan: o‘zigacha bo‘lgan 7-8, 10-12 baytli g‘azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan;
- Mustazod janrining qo‘sh orttirma misrali yangi shaklini kashf etgan:
- *Uning g‘azallari «Shashmaqom»ning hamma kuylariga tushadi, Xorazm xalq ohanglariga mos keladi.*



# OG`IR DAMILAR



TILAME

- Qizg‘in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilan mashg‘ul bir paytda otdan yiqilib, oyog‘i «shakarlang» (shol) bo‘lib qolgan (1845).
- 1857 - yildan miroblik vazifasidan iste’fo bergan.
- Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g‘amgin, kasalmand ahvolda kun kechirgan.
- Ogahiy 1874- yili vafot etdi.



# «Qasidai nasihat»



TILAME

- Ogahiyning «Qasidai nasihat» asari *Feruzga* bag‘ishlangan. U o‘z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo‘llarini belgilab beradi. Qasida masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, unda shoirning siyosiy-ma’rifiy qarashlari yorqin aks etgan.
  - "Qasidai nasihat" adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi bo‘ lib qoldi.



# OGAHIY G‘AZALIYOTI



TILAME

## • Musoviyattarafayn

Ul Sho‘xki	Ochildi	Xat-u	Ruxsori
Ochildi	rayohinda	yuzi	gulnori
Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man-man
Ruxsori	gulnori	man man	zori



## Ilohi, har kuning navro‘z bo‘lsun...



TILAME

- **Ilohi, har kuning navro‘z bo‘lsun,**
- **Hamisha tole'ing feruz bo‘lsun.**
  
- **Bo‘lub ayyomi navro‘zing muborak,**
- **Zamiring inbisot anduz bo‘lsun.**
  
- **Qilib partav fikanlik ayni adling**
- **Quyoshoso jahon afruz bo‘lsun.**
  
- **Sango doyim bo‘lub davlat qushi rom,**
- **Shikor andoz-u dastomuz bo‘lsun...**



# *USTINA*



TILAME

**Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun "nas" kelturur "nun" eltibon  
"sod" ustina.**

**Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.**

**Noz-u adou g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,  
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.**

**Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,  
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina...**





# TASHXIS nima?



TILAME

- Mumtoz she'riyatimizda keng qo'llangan badiiy tasvir vositalardan biri tashxisdir. "Tashxis" arabcha so'z bo'lib, "shaxs" o'zagidan hosil bo'lgan. o'zbek tiliga tarjima qilsak, "***shaxslantirish***" degan ma'noni anglatadi.
- Demakki, tashxis faqat insongagina xos bo'lgan jismoniy va ruhiy holatlarni tabiat manzaralari, jonzotlar, borliqdagi narsabuyumlar hamda hayotdagi tushunchalarga ko'chirish san'atidir.





# XIVADA OGAHİY İJOD MAK TABİ BARPO ETILDI



TILAME

- ❖ Xivadagi shoir nomi bilan ataladigan bog‘ hududida iste’dodli o‘quvchilar uchun Ogahiy nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga hamda xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internati (ijod maktabi) barpo etildi.
- ❖ Uning oldida Ogahiy haykali qad rostladi. Buning asosi sababi esa o‘zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyondasi-iste’dodli shoir, yetuk tarixnavis, mohir tarjimon va davlat arbobi Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy tavalludiga 210 yil to’lganligidir.


# E'turof

- O‘zbekistonda ko‘chalar, maktablar, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri, istirohat bog‘i va boshqa muassasalarga Ogahiy nomi berilgan. Qiyot qishlog‘ida Ogahiy bog‘i tashkil etilib, shoirning uy-muzeyi ochilgan; muzey oldida Ogahiyga haykal o‘rnatilgan.





TIIAME



❖Ogahiyning Xorazmdagi haykali



# XIVADAGI OG'AHİY İJOD MAK TABİ





TIIAME

- “Bundan 30 yil avval shoirdan yodgorlik – ko‘p yillik tut daraxti muhofazaga olinib, uning yonida Ogahiy uy-muzeyi barpo etilgan edi. Shuningdek, yangi ijodiy loyiha asosida ekspozitsiyalar tashkil etilib, yangi tarixiy eksponatlar bilan boyitildi. Ekspozitsiyada Ogahiy yashagan davrga oid va shoir hayoti hamda ijodi bilan bog‘liq nodir asarlari, qo‘lyozma asarlar nusxalari hamda O‘zbekiston xalq rassomi To‘ra Quryozov mo‘yqalamiga mansub Ogahiy badiiy-tarixiy kitoblari mazmuni asosida yaratilgan tasviriy san’at asarlari bilan boyitildi.



TIIAME





**2019-yil dekabr oyida tashkil  
qilingan uy–muzey hamda yangi bunyod  
etilgan shoir nomidagi ijod maktabi  
Ogahiy tavalludining 210 yilligiga  
munosib tuhfa bo‘la oldi, albatta.**

**Uy-muzeyi ya’ni ijod maktabi  
zamonaviy texnik jihozlar bilan  
ta’minlangan.**

**Maxsus zalda davra suhbatlari,  
mahorat darslar, shuningdek, Ogahiy  
hayoti va ijodi haqidagi videorolik va  
hujjatli filmlarni tomosha qilish  
imkoniyati yaratilgan.**









# Bilimingizni sinang!



TILAME

- 1.O‘z ijodining ko‘لامи, she’riyatining ko‘rkamligi va badiiy salmog‘и bilan Navoiydan keyingi o‘rinda turuvchi sermahsul va serqirra ijodkor kim?
- 2. Ogahiy qachon, qayerda tug‘ilgan?
- 3.Ogahiy kimning tugallanmay qolgan asarini nihoyasiga yetkazdi?
- 4.Ogahiyning tarixiy asarlari?
- 5.Ogahiyning tarjimonlik faoliyati?
- 6.Ogahiyning she’riy merosi haqida?
- 7. Ogahiy kimning topshirig‘iga ko‘ ra devon tuzgan?
- 8. “Ta’viz ul-oshiqin” devoni hajmi?
- 9.Qaysi shoir dunyoni suv ustiga qurilgan o‘ta omonat binoga, mehr-u vafosi yo‘q, jafokor makkora ayolga o‘ xshatadi?
- 10.Ogahiyning “Ogohnoma” qasidasi qanday munosabat bilan yozilgan?



Uyga vazifa:  
Ogahiy g‘azallaridan  
yodlab kelish.



**E'TIBORINGIZDAN  
XURSANDMIZ!**